

## TALABALARNING AMALIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TRAEKTORIYASI VA INTENSIV TA'LIMNING AFZALLIKLARI.

**Rafikova Dilafruz Kaxxaraliyevna**

*Farg'ona davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish, individual ta'lim traektoriyasini talabalarning amaliy tayyorgarligini pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida takomillashtirish, talabalarda amaliy tayyorgarlikni takomillashtirishda kompetensiyaviy, faoliyat yondashuvga asoslanishni talab etadigan innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash yaxshi samara berishi haqidagi ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Amaliy tayyorgarlik, zamonaviy pedagogika, Individual ta'lim, kognitiv-amaliy faoliyat, zamonaviy texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, faoliyat yondashuv.*

Talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishda ta'lim traektoriyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ma'lumot olishni maqsad qilgan o'quvchilar o'rta maktabda o'qishni davom ettirib, u yerda oliy o'quv yurtiga kirish uchun zarur bo'lgan fanlarni chuqur o'rganadilar. Zamonaviy pedagogikada «Moslashtirilgan o'quv yo'li», «Individual ta'lim traektoriyasi» - bu xususiy va umumiy hisoblanadi. Individual ta'lim traektoriyasi bu ta'lim oluvchi shaxsning yo'nalishini belgilaydi va shaxsning ta'lim olishini kafolatlaydi. Moslashtirilgan o'quv yo'li bu - pedagogik ta'lim muassasalarida shaxs-rivojlanib muvaffaqiyatli ishlashi uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Ta'lim traektoriyasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining amaliy faoliyatlarini tashkil etish va egallagan nazariy bilimlarini amalda qo'llashni kafolatlaydi. Talabaning individual ta'lim traektoriyasining asosiy xususiyati o'z qobiliyati bilan yangi ta'lim mahsulotlarini yaratganligi bilan izohlanadi.

Individual ta'lim traektoriyasi - bu o'qituvchi pedagogik yordam, o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini - o'zi amalga oshirishni ta'minlaganida, talabaga ta'lim standartini tanlash, ishlab chiqish, amalga oshirish subyekti pozitsiyasini ta'minlaydigan maqsadli ta'lim dasturidir.

Ushbu g'oyalar asosida o'quvchining individual ta'lim traektoriyasini qurish jarayonini ko'rib chiqish zarurati, ular o'z oldiga qo'yilgan ta'lim maqsadlariga majburiy ravishda erishish bilan shaxsning o'zini - o'zi ifoda etishi uchun sharoit yaratishi bilan bog'liq.

Talabaning individual traektoriyasi ta'limning murakkab tuzilmasi bolib, uning tuzilishi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: maqsad (davlat ta'lim standarti, talabaning asosiy motivlari va ehtiyojlari asosida shakllantirilgan ta'lim sohasidagi maqsadlar va yetakchi yo'nalishlarni belgilashni o'z ichiga oladi.)

Biz individual ta'lim traektoriyasini talabalarning amaliy tayyorgarligini pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida takomillashtirishni maqsadga muvofiq deb topdik. Talabalarning amaliy tayyorgarligini pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida takomillashtirish o'ziga xos muammolari mavjud bo'lib, ulardan biri ta'limning nazariy va predmet xarakteri hamda real amaliy faoliyatning ma'lum qoidalarga asoslangan holda tashkil etilishi o'rtasidagi ziddiyatlar bilan bog'liq.

Amaliy tayyorgarlikni takomillashtirish, birinchidan, uning to'laligini (barcha asosiy vazifalarni bajarishga amaliy tayyorgarlikni), ikkinchidan, bir butunligi yoki yaxlitlik (nafaqat ayrim ish va amallarni bajarishga, balki butun amaliy faoliyatni to'laligicha amalga oshirishga, ya'ni maqsad qo'yishdan tortib, to faoliyat natijasini tahlil etish va baholashgacha bo'lgan ishlarni amalga oshirishga tayyorgarlik)ni ta'minlashni nazarda tutadi. Talabalarning amaliy tayyorgarligi sifatini tahlil etish natijalari oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari o'zlarining amaliy faoliyatlarini tashkil etish va egallagan nazariy bilimlarini amalda qo'llashga hamma vaqt ham tayyor emasliklarini ko'rsatdi.

Yuksak faollik amaliy-pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Zero, u aqliy o'zgarishlarga olib keladigan usullarning rolini yanada oshiradi, talabalarning hayotiy faoliyatini kuchaytiradi, uning samaradorligini oshiradi. Albatta, bunga hozirgi vaqtda pedagogik ta'limda qo'llanilayotgan an'anaviy usullarning o'zi bilan erishib bo'lmaydi.

Faoliyat yondashuv nuqtayi nazaridan qaralganda, pedagogik vaziyatga oid masalalar vositasida ta'lim berish metodikasi talabalarning amaliy faoliyatga tayyorgarligi sifatini oshirishga imkon beradi. Shu bois kasbiy-pedagogik jarayonda yuzaga keladigan pedagogik vaziyatlar, muammolar, joriy etiladigan pedagogik topshiriqlar va masalalar, ularning o'ziga xosligi, ahamiyati, turlari hamda tasnifi haqida qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Talabalarda amaliy tayyorgarlikni takomillashtirishda kompetensiyaviy, faoliyat yondashuvga asoslanishni talab etadigan innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash yaxshi samara beradi. Innovatsion ta'lim texnologiyalari hamda faol va interfaol metodlarga asoslangan B.Blum[1], "Case-study", rolli o'yinlar, "Smart texnologiy", shaxsga yo'naltirilgan muammoli o'qitish, mantiqiy fikrlash jarayonlarining adekvat uyg'unligini ta'minlash, shuningdek, pedagogik mikromuhitni intensiv yaratish asosida amalga oshirish - pedagogik masalalar va topshiriqlar talabalarning o'z nuqtayi nazarini bildirishlari uchun imkon beradi. Talabalarda amaliy tayyorgarlikni takomillashtirish maxsus o'quv kursi bo'yicha keys-stadi texnologiyalariga asoslangan amaliy va seminar mashg'uloti tashkil etiladi, suhbat va hamkorlikda muhokamalar o'tkaziladi. Amaliy tayyorgarlikni takomillashtirishga bog'liq texnologiyalar tanlab olinadi. Talabalarda amaliy tayyorgarlikni takomillashtirishning reflektiv yondashuvning konseptual asoslariga tayangan holda loyihalashtirildi va bir nechta bosqichlarga bo'linadi. Ular analitik

(talabalarda amaliy tayyorgarlik shakllanganlik holati haqidagi axborot to'plash, tahlil etish, umumlashtirish va baholash; tashkiliy-tayyorgarlik (texnologiyani amalga oshirish rejasini tuzish, pedagogik metod va vositalarini aniqlash hamda tanlash, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish; faoliyatli (talabalarda amaliy tayyorgarlikni takomillashtirish texnologiyasini joriy etish); monitoring (talabalarning amaliy tayyorgarligi takomillashtirish dinamikasini baholash, metodik tuzatishlar kiritish); natijaviy (talabalarning amaliy tayyorgarligi takomillashtirish baholash va kelgusila amalga oshiriladigan ishlar rejasini tuzish)dan iborat.

Har qanday pedagogik texnologiya ikki qismdan tashkil topgan: mazmunli-protsessual va tashkiliy-pedagogik. Texnologiyaning mazmuni o'zida kognitiv-amaliy faoliyat – refleksiya birligi va ana shu bosqichlarni har birida o'ziga xos tarzda namoyon bo'luvchi amaliy tayyorgarlikni takomillashtirish darajalari (anglash, tushunish, munosabat va fikrlash)ni aks ettirdi.

Talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirish pedagogik mikromuhitni intensiv yaratish asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Ta'limda turli xil texnologiyalar, ilmiy - axborot vositalarining joriy etilishi qisqa vaqt ichida katta hajmli ma'lumotlarni berish imkoniyatini vujudga keltirdi. Bu esa o'quvchiga birinchi mashg'ulotdan boshlab eng qisqa vaqt ichida talab qilinadigan o'quv materialining hajmini oshirishga imkon beradi. O'quv materialining hajmini oshirishda intensiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish samarali usuldir.

"Intensiv" atamasi XIX asrning birinchi yarmida ilk bor rus pedagogik adabiyotlarida paydo bo'lgan. Bu so'z fransuz tilidan "qizg'in", "kuchaygan", lotin tilidan "baquvvat", "jonli", "tezkor", "bo'ronli", ispanchadan "cho'zish", "kattalashtirish", "kengaytirish" deb tarjima qilinadi.

Intensiv ta'lim pedagogik ensiklopediyada quyidagicha izohlanadi: (fransuzcha "intensif", lotincha "intension" – "g'ayrat qilish", "kuchayish" "jadal") tezkor amalga oshiriladiga o'quv jarayoni.

Intensiv mashg'ulotlar bolaning aqliy salohiyatining rivojlanishida an'anaviy mashg'ulotlarga qaraganda bir qator afzalliklarga ega.

Ushbu afzalliklar ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bir- biri bilan faol muloqotiga asoslangan.

Jumladan, I.V.Shestitko, I.A.Turchenko, Y.S.Shilova va S.V. Marshina[2]lar "intensiv" atamasining ma'no doirasi "taranglik va mustahkamlash" uchun sharoit yaratishga qaratilgan bo'lib, ta'lim maqsadiga erishishga imkon beradi, shuningdek, o'quvchi qizg'in faoliyat jarayonida yuz beradigan sifat va miqdoriy o'zgarishlarga urg'u beradi" deb ta'riflaydilar.

G.K.Selevko o'quvchilarni jonlantirish va intensivlashtirishga asoslangan pedagogik texnologiyalarni o'yin texnologiyasi, muammoni o'rganish, o'quv materialining sxematik va ikonik modellari asosida mashg'ulotlarni chuqurlashtirish texnologiyasi, daraja farqlash texnologiyalari, ta'limni individuallashtirish texnologiyasi, dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasi, guruh texnologiyalari,

kompyuter (yangi axborot) o'qitish texnologiyalari kabi bir qancha guruhlarga bo'lgan. Intensiv mashg'ulotlarni intellekti yuqori, faol, ijodkor, shaxsiy salohiyatini to'liq namoyon qila oladigan o'qituvchini tashkil eta oladi. O'qituvchi intensiv mashg'ulotlarning samaradorligini orttirishi uchun bir nechta shartlarni bajarishi lozim.

- o'qituvchi qobiliyatining ma'lum bir texnologiyaning maqsadlari va vazifalariga muvofiqligi (o'yin, mashq va boshqalar). Bunda o'qituvchining roli qo'llanayotgan texnologiya turi va maqsadiga qarab turlicha bo'ladi. O'qituvchi tashkilotchi- rahbar, kommunikator, psixolog va boshqa rollarni bajaradi.

- o'qituvchi guruh bilan muloqotda professional tajribaga ega bo'lishi. O'qituvchi diologik muloqot jarayonida an'anaviydan farqli ravishda "subyekt - obyekt" shaklidan farqli ravishda "subyekt - subyekt" munosabatini o'rnatishi lozim. Aynan diologik kommunikatsiyada munozarali bahslar bo'lib o'tadi, intensiv o'zaro aloqada bo'lgan barcha ishtirokchilarning faolligi tufayli muammo jamoaviy hal qilinadi. Shu bilan birga, ishtirokchilarning faoliyati o'rta qo'yilgan vazifani hal qilishga qaratilgan. Aynan o'zaro muloqotda ishtirokchilar bir - birlarini, avvalo, muayyan muammoga har xil yondashuvlar, turli xil qarashlar bilan o'zaro boyitadilar, bu esa eng maqbul echimni topishga imkon beradi.

- o'qituvchining shaxsiy yo'nalishi. O'qituvchi yangi texnologiyani shijoat va qiziqish bilan kutib olishi, yangiliklar va o'zgarishga tayyor turishi va eng asosiysi, yangilikni o'z faoliyatida qo'llashdan cho'chimasligi lozim.

Intensiv mashg'ulotdan belgilangan maqsadlarni amalga oshirishning asosiy sharti mashg'ulotning har xil tashkiliy shakllaridan foydalanish bo'lib, bunda o'quvchilar mustaqil ishni tanlov erkinligi, o'zining shaxsiy individual – psixologik imkoniyatlarini namoyon etgan holda bajaradilar. Natijada ularning muloqotdagi ijodiy faolligi, munozaraga kirishuvchanligi va shaxsiy qobiliyatlarini amalda qo'llay olishlari ortadi.

Darsda zamonaviy texnologiyalar, raqamli texnologiyalardan foydalanish esa dars vaqtining unumli sarflanishida qo'l keladi. Qolgan vaqtda qo'shimcha topshiriqlar bilan ishlash bir qator afzalliklarga ega. Xususan, o'quvchilar turfa xil mazmundagi vazifalarni bajarishlari orqali ularda kreativlik rivojlanadi, o'rganilayotgan predmet haqida kengroq tushunchaga ega bo'lishlari tasavvurlarining yanada kengayishiga, nutqiy va lingvistik kompetensiyalarning takomillashishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishga doir o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishda ko'proq "SMART texnologiya" texnologiyasiga tayaniladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Blum.A. The development of an Integred Science Curriculum. Information Scheme Fur. // Science Education 1981, vol.3,- 1-15 p.

2. Шеститко И.В., Турченко И.А., Шилова Й.С., Маршина С.В. Интенсивное обучение: технологии организатсии образовательного протсесса. – Светлая Роща, 2014. -136 с.

3. Рафиқова Д., Азимов У. ТАЪЛИМНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ВА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2 (81). – С. 167-169.

4. Рафиқова Д., Азимов У. MODERNIZATION OF EDUCATION AND INCREASING THE QUALITY OF EDUCATION //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2. – С. 167-169.

5. Азимов У. А. ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ЁШЛАРНИНГ ДЕМОКРАТИК ҚАДРИЯТЛАР ТИЗИМИГА АКЦИОЛОГИК МУНОСАБАТИНИ РИВОЖЛАНИТИРИШНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАХЛИЛИ //ТОШКЕНТ-2021. – С. 102.